OLIY TA'LIM TASHKILOTI SUBYEKTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI BO'YICHA XARAJATLAR HISOBINI YURITISH	896
<i>Xonimqulov Islom Ergash o'g'li</i>	
XIZMAT KO'RSATUVCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA MODDIY-TEXNIKA RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	901
<i>Kamoliddinov Ilxomjon Muxammadjonovich</i>	
THE HIDE AND SHADOW ECONOMY IN UZBEKISTAN	905
<i>Koshanov Abdimurat Azat uli, Abdimuratova Altingul Kalbayevna</i>	
SHAHAR AGLOMERATSIYALARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH.....	910
<i>Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich</i>	
MOL-MULK SOLIG'I HISOB VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	914
<i>Sh.M.Ergashev</i>	
HUDUDLARDA QURILISH OBYEKTLARINI QURILISH MATERIALLARI BILAN TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	918
<i>Najimov Iskander Perdebayevich</i>	
TOVAR MODDIY ZAXIRALAR AUDITIDA TAHLILY AMALLARNI O'TKAZISH VA ULARNING BOSQICHLARI.....	922
<i>Tajekeev Ziyatdin Kobeytinovich</i>	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ЗАТРАТАМИ ПРЕДПРИЯТИЯ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	927
<i>Минутдинова Лилия Тагировна</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ ОСВЕЩЕНИЯ САЛОНОВ ВАГОНОВ МЕТРОПОЛИТЕНА ПУТЕМ ЗАМЕНЫ ЛАМП НАКАЛИВАНИЯ ЛБ-40 (ЛБ-36) НА СВЕТОДИОДНЫЕ LED-ЛАМПЫ	934
<i>Файзуллаев Асомитдин Аловитдинович, Нематов Эркин Хамраевич, Пирназаров Шохрух Холмурод угли</i>	
HUDUDY BARQAROR O'SISHDA INKLYUZIV IQTISODIY MEKANIZMLARNING ROLI	939
<i>Xamroqulov M.J.</i>	
UZBEKISTAN'S HIGHER EDUCATION SYSTEM STRENGTHENS ITS POSITION ON THE INTERNATIONAL STAGE.....	944
<i>Umarov Diyor Ravshanovich</i>	
YANGI TAKOMILLASHTIRILGAN PAXTA SEPARATORINI KORXONADA SINOV JARAYONIDAN O'TKAZISH.....	949
<i>Raximov Akbar Xolmurodovich</i>	
KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING OSIYO DAVLATLARI TAJRIBALARI: TAHLILY YONDASHUV	953
<i>Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich</i>	
КИНЕТИЧЕСКАЯ АРХИТЕКТУРА НА ПРИМЕРЕ ДИНАМИЧЕСКИХ ФАСАДОВ	958
<i>Хаитов Суннатжон Истамович</i>	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING AMALIY IMKONIYATLARI.....	963
<i>Ibragimova Shahlo Alimbayevna</i>	
ЗАКОНОМЕРНОСТИ ДЕСУЛЬФУРАЦИИ МЕТАЛЛА ШВА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СОСТАВА ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ФЛЮСОВ	969
<i>Абралов Музаффар Махмудович</i>	
РОЛЬ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И ИННОВАЦИОННОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ	975
<i>Бахрамов Зиядулла Баходирходжаевич</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	979
<i>Yuldasheva Mexrunisa Qasimjan qizi</i>	
OLIY TA'LIM SOHASINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISHNING INSTITUTSIONAL VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	984
<i>Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li</i>	



XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA DAVLAT AKTIVLARI BO'YICHA INTERAKTIV MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH ORQALI BUDJET XARAJATLARINI TAHLIL QILISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	989
Dilshod Pulatov, Gulzara Kaxxarova	
TEMIR YO'L TRANSPORTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	994
Raximov Xasan Shukurjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	1000
Yuldashev Doniyor Tairovich	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI

Yuldashev Doniyor Tairovich

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi kichik biznes raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillarni aniqlash hamda ularni kuchaytirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, taqqoslash, statistik kuzatuv va grafik usullardan foydalanilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion faollik, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, boshqaruv tizimining sifati hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish kichik biznes raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari kichik biznesni rivojlantirish siyosatini takomillashtirishda va amaliy boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, raqobatbardoshlik, innovatsiyalar, moliyaviy boshqaruv, raqamli transformatsiya, bozor muhiti.

Abstract. This scientific article examines the issues of increasing the competitiveness of small business entities from both theoretical and practical perspectives. The main objective of the research is to identify economic factors affecting small business competitiveness and to develop effective mechanisms for strengthening them. The research employs economic analysis, comparison, statistical observation, and graphical methods. The results indicate that innovative activity, efficient use of financial resources, the quality of management systems, and the adoption of digital technologies play a decisive role in enhancing small business competitiveness. The findings are significant for improving small business development policies and supporting practical managerial decision-making.

Keywords: small business, competitiveness, innovation, financial management, digital transformation, market environment.

Аннотация. В данной научной статье теоретически и практически исследуются вопросы повышения конкурентоспособности субъектов малого бизнеса. Основной целью исследования является выявление экономических факторов, влияющих на конкурентоспособность малого бизнеса, а также разработка эффективных механизмов их усиления. В процессе исследования использовались методы экономического анализа, сравнения, статистического наблюдения и графического анализа. Полученные результаты показывают, что инновационная активность, эффективное использование финансовых ресурсов, качество системы управления и внедрение цифровых технологий имеют решающее значение для повышения конкурентоспособности малого бизнеса. Результаты исследования имеют важное значение для совершенствования политики развития малого бизнеса и принятия практических управленческих решений.

Ключевые слова: малый бизнес, конкурентоспособность, инновации, финансовое управление, цифровая трансформация, рыночная среда.

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonlari va xalqaro raqobatning tobora kuchayib borayotgan sharoitida kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiyotning barqaror va inklyuziv rivojlanishini ta'minlovchi muhim institutsional bo'g'inlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Kichik biznes iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini oshirish va daromadlar barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda, innovatsion g'oyalarni tezkor joriy etish va bozor ehtiyojlariga moslashish imkoniyatlari bilan ham ajralib turadi. Shu bois, kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda raqobatbardoshlik tushunchasi xo'jalik yurituvchi subyektning bozorda



o'z mavqeini saqlab qolish, raqobatchilarga nisbatan ustunlikka erishish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash qobiliyati sifatida talqin etiladi. Kichik biznes subyektlari uchun raqobatbardoshlik faqat mahsulot yoki xizmat narxi bilan emas, balki uning sifati, innovatsionlik darajasi, boshqaruv samaradorligi, ishlab chiqarish va marketing jarayonlarining moslashuvchanligi hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi bilan ham belgilanadi. Shu jihatdan, kichik biznes raqobatbardoshligini oshirish ko'p omilli va tizimli yondashuvni talab etuvchi murakkab ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar, tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturlari va institutsional o'zgarishlar kichik biznes rivoji uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. Biroq, mavjud imkoniyatlarga qaramay, kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini cheklab kelayotgan muammolar ham saqlanib qolmoqda. Xususan, moliyaviy resurslarga kirishning cheklanganligi, innovatsion faollikning yetarli darajada rivojlanmagani, zamonaviy boshqaruv va raqamli texnologiyalarning to'liq joriy etilmagani ushbu muammolar qatoriga kiradi. Milliy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil boshiga kelib kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi qariyb 49,6 foizni tashkil etib, 2024-yildagi ko'rsatkich bilan barqaror darajada saqlanib qolgan. Mazkur holat kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi muhim o'rnini va uning raqobatbardoshlik salohiyati mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarish uchun raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi iqtisodiy omillarni chuqur tahlil qilish va ularni kuchaytirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zarurati mavjud.

Shu munosabat bilan, mazkur tadqiqot kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillarni aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot natijalari kichik biznesni rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirish va iqtisodiy siyosatni samarali shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlarda kichik biznes va tadbirkorlikning milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rni fundamental va amaliy jihatdan keng yoritilgan bo'lib, tadbirkorlik faoliyati innovatsiyalarni rag'batlantirish, bandlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishning muhim omili sifatida talqin etiladi. Klassik nazariy yondashuvlarda J. Shumpeter tadbirkorni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholab, innovatsiyalar orqali yangi kombinatsiyalarni yaratish iqtisodiy taraqqiyotning negizi ekanini ta'kidlaydi [6]. Ushbu yondashuv keyingi tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda tadbirkorlik, innovatsiya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi uzviy bog'liqlik Audretsch tomonidan chuqur tahlil qilinib, kichik biznes va yangi tashkil etilgan korxonalar iqtisodiy rivojlanish, texnologik yangilanish va raqobat muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynashi ilmiy asoslangan [1]. Shu bilan birga, Carland va hammualliflar tadbirkorlik va kichik biznes tushunchalarini farqlab, tadbirkorlar yuqori darajadagi o'sishga intilish, innovatsion yondashuv va strategik tavakkalchilik bilan tavsiflanishini, ko'plab kichik biznes subyektlari esa asosan barqaror faoliyat va mavjud bozordagi mavqeini saqlashga yo'naltirilganligini ko'rsatadilar [2]. Kichik biznesning raqobatbardoshligini ta'minlashda strategik boshqaruv va bozor mexanizmlarining ahamiyati M. Porter asarlarida keng yoritilib, raqobat ustunligini shakllantirishda xarajatlar yetakchiligi, differensiasiya va fokus strategiyalarining roli asoslab berilgan [4], shuningdek, tarmoqdagi raqobat muhitini baholashda besh kuch modeli kichik biznes uchun muhim analitik instrument sifatida e'tirof etilgan [5]. Marketing omili ham kichik biznes raqobatbardoshligining muhim tarkibiy qismi bo'lib, Kotler va Keller marketingni iste'molchi ehtiyojlariga mos qiymat yaratish jarayoni sifatida talqin etib, mahsulot sifati, narx siyosati va bozor segmentatsiyasining biznes muvaffaqiyatiga ta'sirini asoslab berganlar [3]. Xorijiy tajribalar bilan bir qatorda, mahalliy tadqiqotlarda ham kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari keng o'rganilgan bo'lib, O'zbekiston sharoitida oilaviy biznes samaradorligini oshirish, xorijiy tajribani joriy etish va pandemiya sharoitida moslashuvchan mexanizmlarni qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan [8], [9], [10]. Hududiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning eksport salohiyatini oshirish masalalari ham zamonaviy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, mintaqaviy yondashuv asosida kichik biznesning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari yoritilgan [11], [12]. O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning ahamiyati, uning bandlik va iqtisodiy barqarorlikka ta'siri milliy mualliflar tomonidan empirik jihatdan asoslab berilgan [13]. Shu bilan birga, boshqaruvning zamonaviy usullari, raqamli texnologiyalar va huquqiy himoya masalalari kichik biznes raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti sifatida ko'rilib, zamonaviy boshqaruv va axborot resurslarini himoyalash bo'yicha ilmiy yondashuvlar taklif etilgan [14]. Huquqiy ong va madaniyatni oshirish orqali tadbirkorlik muhitini mustahkamlash masalalari ham kichik biznes rivoji uchun muhim institutsional omil sifatida baholanadi [7]. Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar kichik biznes raqobatbardoshligini oshirish ko'p omilli jarayon ekanini ko'rsatib, innovatsiya, strategik boshqaruv, marketing, institutsional muhit va hududiy omillarning o'zaro uyg'unligi ushbu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini aniqlash va baholashga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosini raqobatbardoshlik nazariyasi, tadbirkorlik va innovatsion rivojlanish konsepsiyalari hamda tizimli yondashuv tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash, mantiqiy umumlashtirish, statistik kuzatuv hamda grafik va jadval usullaridan foydalanildi. Statistik tahlil 2019–2025-yillar davomida kichik biznes rivojlanish ko'rsatkichlari asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistik ma'lumotlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tashkil etdi. Tanlangan metodlar tadqiqot maqsadiga mos bo'lib, olingan natijalarning ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi o'rnini va raqobatbardoshligi bo'yicha ijobiy dinamika kuzatilmoqda. Milliy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil boshiga kelib kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi qariyb 49,6 foizni tashkil etib, 2024-yildagi ko'rsatkich bilan barqaror darajada saqlanib qolgan. Mazkur holat kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi muhim rolini tasdiqlaydi hamda uning raqobatbardoshlik salohiyati saqlanib qolayotganini ko'rsatadi [15].

Shuningdek, 2025-yilda faol kichik biznes subyektlari soni 1 212,4 mingni tashkil etib, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 372,9 mingga teng bo'lgan. Sektorlar kesimida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, savdo va xizmat ko'rsatish sohalari kichik biznes faoliyatining asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi. Ushbu holat mazkur tarmoqlarda raqobat muhitining yuqoriligi va raqobatbardoshlikni shakllantirish imkoniyatlarining kengligi bilan izohlanadi [15]. Tahlil natijalarini yanada aniq va tizimli aks ettirish maqsadida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi asosiy ko'rsatkichlar 2019–2025-yillar oralig'ida quyidagi jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes raqobatbardoshligining asosiy ko'rsatkichlari (2019–2025) [1]

Yil	Kichik biznes ulushi (% YalIM)	Faol kichik biznes subyektlari (ming)	Izoh
2019	58,5	—	Statistika ma'lumotlari mavjud emas
2020	57,5	—	Pandemiya davri ta'siri
2021	56,9	—	Tiklanish bosqichi
2022	54,6	—	Barqaror o'sish tendensiyasi
2023	54,3	—	Kichik biznes faoliyati kengaydi
2024	~49–50*	—	Ma'lumotlar chora yillik asosda
2025	49,6	1 212,4	Eng so'nggi chorak ma'lumotlari

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, kichik biznesning YalIMdagi ulushi biroz barqarorlashgan bo'lsa-da, asosiy miqdoriy ko'rsatkichlar yuqori darajada qolmoqda. Bu raqamlar kichik biznesning iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Diagramma ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda kichik biznesning YalIMdagi ulushi 58,5 % ni tashkil etgan. 2020-yilda ushbu ko'rsatkich 57,5 % gacha kamaygan bo'lib, bu holat asosan global pandemiya sharoitida iqtisodiy faollikning pasayishi bilan izohlanadi. 2021-yilda ulush 56,9 % ni tashkil etib, iqtisodiyotda bosqichma-bosqich tiklanish jarayoni boshlanganini ko'rsatadi. 2022–2023-yillarda kichik biznesning YalIMdagi ulushi mos ravishda 54,6 % va 54,3 % ni tashkil etgan. Ushbu davrda ulushning nisbatan pasayishi yirik investitsion loyihalar ulushining oshishi hamda iqtisodiyotda yirik korxonalar rolining kuchayishi bilan bog'liq. Biroq, bu pasayish kichik biznes faoliyatining qisqarishini emas, balki iqtisodiy tuzilmaning diversifikatsiyalashuvini aks ettiradi. 2024–2025-yillarda kichik biznesning YalIMdagi ulushi barqaror darajada shakllanib, 2025-yilda 49,6 % ni tashkil etgan. Diagramma ushbu davrda ko'rsatkichning keskin pasaymaganini, aksincha, kichik biznes subyektlarining yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashganini va raqobatbardoshlik salohiyati saqlanib qolganini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlar kichik biznes subyektlarining YalIMdagi ulushi bosqichma-bosqich pasaygan bo'lsa-da, keyingi ikki yilda barqaror darajada qolayotgani ularning raqobatbardoshligi va iqtisodiy moslashuvchanligining mustahkamligini ko'rsatadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning raqobatbardoshligi nafaqat YalIMdagi ulushi bilan, balki faol subyektlar sonining o'sishi bilan ham izohlanadi. Bu esa kichik biznes subyektlarining bozorga kirish imkoniyati, xizmat va mahsulotlar ko'lamini, shuningdek, investitsiya jalb qilish qobiliyatining oshishidan darak beradi.



Olingan tadqiqot natijalari kichik biznes raqobatbardoshligi ko'p omilli jarayon ekanligini va u faqatgina yalpi ichki mahsulotdagi ulush orqali baholanmasligini ko'rsatadi. 2019–2025-yillarda kuzatilgan dinamika shuni tasdiqlaydiki, kichik biznesning YalMdagi ulushi nisbatan pasaygan bo'lsa-da, bu holat uning iqtisodiy faolligi va moslashuvchanligi saqlanib qolayotganini inkor etmaydi. Aksincha, kichik biznes subyektlari tarkibiy o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda bozor talablariga moslashish orqali o'z raqobatbardoshlik salohiyatini mustahkamlab bormoqda. Mazkur natijalar xorijiy tadqiqotlar bilan solishtirilganda, ular rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi bilan ma'lum darajada mos keladi. Jumladan, Porter va Audretsch tadqiqotlarida kichik biznesning raqobatbardoshligi ko'proq innovatsion faollik, menejment sifati va institutsional muhit bilan belgilanishi ta'kidlanadi. Germaniya, Janubiy Koreya va Turkiya tajribasida ham kichik biznesning YalMdagi ulushi vaqt o'tishi bilan barqarorlashgan, biroq uning bandlik va innovatsiyalarni joriy etishdagi roli yuqori darajada saqlanib qolgan. Bu holat O'zbekiston sharoitida ham kichik biznes raqobatbardoshligini sifat ko'rsatkichlari asosida baholash zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida kichik biznes raqobatbardoshligining kuchli jihatlari sifatida uning moslashuvchanligi, bozor talablariga tezkor javob bera olish qobiliyati hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari ajratib ko'rsatildi. Shu bilan birga, zaif jihatlari ham mavjud bo'lib, ularga moliyaviy resurslarga cheklangan kirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va ayrim hududlarda infratuzilma muammolari kiradi. Raqobatbardoshlikni oshirish strategiyalarini amalga oshirish jarayonida bir qator tizimli muammolar kuzatilmoqda. Xususan, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari ko'pincha miqdoriy ko'rsatkichlarga yo'naltirilgan bo'lib, sifat jihatlari rivojlantirish yetarli darajada e'tibordan chetda qolmoqda. Bundan tashqari, raqamli transformatsiya jarayonlarida kadrlar salohiyatining yetishmasligi va innovatsion madaniyatning to'liq shakllanmaganligi kichik biznes raqobatbardoshligini cheklovchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, kichik biznes raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligini oshirishga yo'naltirilgan moliyaviy va institutsional mexanizmlarni kengaytirish zarur. Xususan, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun grantlar, imtiyozli kreditlar va venchur moliyalashtirish instrumentlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, kichik biznes subyektlarida zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda tadbirkorlar uchun malaka oshirish dasturlari, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish va biznes-inkubatorlar faoliyatini kuchaytirish kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish kichik biznes uchun strategik ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali kichik biznes subyektlari xarajatlarni qisqartirish, bozorga chiqish tezligini oshirish va mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bois, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va elektron xizmatlardan foydalanishni rag'batlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Umuman olganda, muhokama natijalari kichik biznes raqobatbardoshligini oshirish strategiyasi kompleks yondashuvga asoslanishi, ya'ni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda innovatsiyalarni rag'batlantirish, boshqaruv sifatini oshirish va institutsional muhitni takomillashtirishga yo'naltirilishi zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes raqobatbardoshligini oshirish davlat siyosati, xususi sektor tashabbuslari va institutsional muhitning uyg'un rivojlanishini talab etadi. Mazkur tadqiqot natijalari kichik biznesni rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirishda, iqtisodiy siyosatni shakllantirishda hamda ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik asos sifatida foydalanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Audretsch, D. B. (2007). *Entrepreneurship, innovation and economic growth*. Edward Elgar Publishing.
2. Carland, J. W., Hoy, F., Boulton, W. R., & Carland, J. C. (1984). Differentiating entrepreneurs from small business owners: A conceptualization. *Academy of Management Review*, 9(2), 354–359. <https://doi.org/10.5465/amr.1984.4277721>
3. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). *Marketing management* (15th ed.). Pearson Education.
4. Porter, M. E. (1998). *Competitive advantage: Creating and sustaining superior performance*. Free Press.
5. Porter, M. E. (2008). The five competitive forces that shape strategy. *Harvard Business Review*, 86(1), 78–93.
6. Schumpeter, J. A. (1934). *The theory of economic development: An inquiry into profits, capital, credit, interest, and the business cycle*. Harvard University Press.
7. Yuldashev, D. (2022). Ensuring the integrity of legal education and upbringing in enhancing legal awareness and legal culture in society. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 2(06), 28-31.
8. Эргашев, А. Х., Юлдашев, Д. Т., & Аликулов, Б. А. У. (2022). Перспективные пути повышения эффективности семейного бизнеса в Узбекистане в период политики сокращения бедности. *ceteris paribus*, (4), 53-57.
9. Urmonov, S. U., & Tairovich, Y. D. (2021). Foreign experience in the formation and development of a family business and the possibility of their implementation. *International journal of trends in marketing management*, 9(1).



10. Yuldashev, D. T., Kholmatov, B. A., & Isakov, M. Y. (2020). Foreign experience of family business and the possibilities of their implementation on the pandemic period. *Economics and Innovative Technologies*, 2020(6), 6.
11. Ugli, N. D. E. (2025). Priority areas of development of regional entrepreneurship in Uzbekistan and increase of its export potential. In *The World Of Science and Education*, (15 февраль ЭН), 76-81.
12. Erkinjon o'g'li, N. D. (2024). Opportunities for the Use of Foreign Experience in Export Activities of Small Business and Business Entities in Uzbekistan. *International Journal of Scientific Trends*, 3(1), 57-64.
13. Nishonboyev, D. (2023). The importance of small business and entrepreneurship in the economy of Uzbekistan. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(11), 78-86.
14. Turg'unov M.M., & Nishonboyev, D.E. (2024). Zamonaviy boshqaruv. Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida. DGU 34845.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2025). O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistik ma'lumotlari. <https://stat.uz>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100